



## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI

Yuldashev Sherzod Sattorovich

Central Asian Medical University

**Anotatsiya:** Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional darajada kundalik ishlarda axborot kommunikatsion texnologiyalar orqali kasbiy faoliyatini tashkil etishi dolzarb masala hisoblanadi. Talaba-yoshlarning ijtimoiy-tarmoqlarda faolligini inobatga olgan holda ular uchun turli dasturiy mahsulotlardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar kontentlar tayyorlash ham juda muhimdir. Ushbu maqolada axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llashda turli video topshiriqlar hamda ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan foydalanib mediakompetentlikni rivojlanishni to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** mediakompetentlik, grafik dasturlar, kreativlik, podcast, media-loyiha.

**Аннотация:** Для будущих учителей актуальной является проблема организации своей профессиональной деятельности посредством информационно-коммуникационных технологий в повседневной работе на профессиональном уровне. Учитывая активность студентов и молодежи в социальных сетях, также очень важно подготовить для них обучающий контент по использованию различных программных продуктов. В статье представлена информация о развитии медиакомпетентности с использованием различных видеозаданий и возможностей социальных сетей при использовании информационных технологий в профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** медиакомпетентность, графические программы, креативность, подкаст, медиапроект.

**Abstract:** It is an urgent issue for future teachers to organize their professional activities through information and communication technologies in their daily work at a professional level. Taking into account the activity of students and young people in social networks, it is also very important to prepare instructional content for them on the use of various software products. This article presents information on the development of media competence using various video tasks and social networks in the application of information technologies in professional activities.

**Keywords:** media competence, graphic programs, creativity, podcast, media project.

Bugungi kun, ya’ni ayni davrning dolzarb talabi har bir soha vakilidan axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasini talab etadi. Ixtiyoriy soha vakillaridan o‘z





kasbiy faoliyatlariga doir bilimlarni bilish barobarida, ofis, grafik dasturlaridan foydalanib, mediakompetentlik ko'nikmalariga ega bo'lgan holatda kasbiy faoliyatini olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini bir qator metodlar orqali rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etib, amaliy mashqlar asosida, turli topshiriqlarni bajarib ko'rishlari hisobiga mediakompetentlik, ya'ni zamonaviy dasturiy mahsulotlar hamda texnik vositalardan foydalanish ko'nikmasi rivojlantiriladi. Ayniqsa, talaba-yoshlarning ijtimoiy-tarmoqlarda faolligini inobatga olgan holda ular uchun turli dasturiy mahsulotlardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar kontentlar tayyorlash ham muhimdir. Xususan, oliy ma'lumotga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilar professional darajada kundalik ishlarida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishi ular ishlayotgan sohada ish unumdorligini oshishi butun dunyo mamlakatlari miqyosida tan olingen fakt hisoblanadi.

Amaliy topshiriqlar bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Turli ko'rinishdagi topshiriqlar talabalarga olgan bilimlarini amalda qo'llash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va media muhitining faol ishtirokchisiga aylanish imkoniyatini beradi. Amaliy tajriba orttirish orqali talabalar mediasavodxonlik haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladilar va ommaviy axborot vositalarining murakkab olamida faol bo'lishga yaxshiroq tayyorlanishadi.

O'qituvchilar va talabalar o'rtasida media kompetentsiyasini rivojlantirishga ko'maklashish va ularni ommaviy axborot vositalariga asoslangan jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlash uchun ta'lim dasturlariga amaliy mashg'ulotlarni kiritilishi juda muhim hisoblanadi. Qolaversa, bo'lajak pedagoglarda media kompetentlik malaka, ko'nikmasining mavjudligi, kasbiy pedagogik faoliyatlarini tashkil etishga, kreativ yondashishga yordam beruvchi vosita sanaladi

Turli video qo'llanmalar orqali amaliy topshiriqlarni bajarish ko'nikmasi bu mediani samarali boshqarish va undan foydalanish qobiliyatidir. Axborot izlash, manbalarni tekshirish va turli media vositalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarga media platformalardan malakali foydalanuvchi bo'lishga yordam beradi. Masalan, talabalarga onlayn manbalar, kitoblar va intervylardan foydalangan holda ma'lum bir mavzuni tadqiq qilish topshirilishi mumkin. Ushbu faoliyat talabalarga ishonchli ma'lumotni qanday topish va ishonchli manbalar va soxta yangiliklar o'rtasidagi farqni tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari, amaliy muammolar ijodkorlik va media ishlab chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Talabalar podkastlar, videolar yoki ijtimoiy media tarmoqlaridagi kabi o'zlarining mutaxassisliklari doirasida mediakontentlarni yaratishlari mumkin. Ommaviy axborot vositalarini ishlab chiqarishning barcha jarayonida faol ishtirok etib, talabalar nafaqat





texnik ko'nikmalarini rivojlantiradilar, balki xabarlarni samarali muloqot qilish qobiliyatini ham oshiradilar.

Bu ularga ommaviy axborot vositalarining passiv iste'molchisi emas, balki faol ijodkor va ishtirokchi bo'lish imkoniyatini beradi.

Video topshiriqlarni, testlarni bajarishda ishtirok etish jamoada ishlash, hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ko'pincha media-loyihalar talabalardan guruhlarda ishlashni, fikr almashishni, topshiriqlarni topshirishni va ularning natijalarini taqdim etishni talab qiladi. Bu hamkorlik orqali o'quvchilar o'z fikr va mulohazalarini samarali ifoda etish, turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish va umumiy maqsad sari harakat qilishni o'rganadilar. Ushbu ko'nikmalar nafaqat ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq sohalarda, balki turli xil professional va shaxsiy kontekstlarda ham muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirish uchun rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanib, o'quv rejalariga multimedia tushunchalarini yoritib beruvchi fanlarni kiritish va metodik qo'llanmalar yaratish hamda tinglovchilarga, talabalarga yetkazish, multimedia vositalari, multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim sohalarini rivojlantirish davr talabidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmed Yousif Abdelraheem. The Impact of Using Mobile Social Network Applications on Students' SocialLife. International Journal of Instruction, v11 n2 p1-14 Apr 2018
2. Babadjonov S.S., Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent: 2018.
3. Fayzieva D.Kh. Using software for teaching foreign languag using software for teaching foreign languages. Academy 2020. № 9 (60). 13-17 betlar
4. Fayzieva D.Kh. About the theory of multiple intelligence. Vestnik nauki i obrazovaniya 2020. № 19 (97), Part 2. 85-88- betlar
5. Jurayeva N.O. Specific aspects and principles of the method of organizing independent education of students. Actual problems of modern science, education and training". №8, Xorazm, 2022. – P. 23-27.
6. D.KH Fayziyeva. B.N.Takhirov. Z.M. Adizova. Obucheniye programmirovaniyu s pomoshch'yu geymifikatsii//Vestnik nauki i obrazovaniya.

